



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil "11" noyabr
162-son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining
3-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«01» noyabr 2024-yil

Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymuradov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
v.v.b. rektori, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Ilmiy kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1. 2023/2024o‘quv yili bahorgi semestr yakuni bo‘yicha talabalarning fanlarni o‘zlashtirish natijalari tahlili, kamchiliklar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari.

Ma‘ruzachi – O‘quv ishlari prorektori Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich.

2. Akademiya qabul hay‘atining 2024-2025 o‘quv yiliga talabalar qabuli natijalari bo‘yicha hisoboti.

Ma‘ruzachi – Qabul hay‘ati mas‘ul kotibi Israilov Jaxongirxon Djamshidxonovich.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma‘ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma‘ruzachi – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "2023/2024 o'quv yili bahorgi semestr yakuni bo'yicha talabalarning fanlarni o'zlashtirish natijalari tahlili, kamchiliklar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari" mavzusi bo'yicha O'quv ishlari prorektori Boymuradov Shuxrat Abdujalilovichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Kafedralardagi barcha mutaxassisliklar bo'yicha HEMIS platformasiga fan resurslarini to'liq yuklanishi va kafedra mudirlari tomonidan nazoratga olinishi ta'minlansin

Mas'ullar: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, ofis registrator direktori F.B.Saloxiddinov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.2. HEMIS platformasiga professor-o'qituvchilarning barcha ma'lumotlari, shu jumladan ilmiy faoliyati mahsulotlari to'liq yuklanishi ta'minlansin.

Mas'ullar: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, ofis registrator direktori F.B.Saloxiddinov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.3. Elektron jurnalga fanlardan davomat va baholarni o'z vaqtida qo'yilishi va kafedra mudirlari tomonidan muntazam ravishda nazoratga olinishi ta'minlansin.

Mas'ullar: Ofis registrator direktori F.B.Saloxiddinov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.4. Barcha fanlar bo'yicha mavzulari, laboratoriya ishlari va amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam bajarilishi bo'yicha video va audio materiallar doimiy ravishda yangilanishi va to'liq holatga keltirilishi ta'minlansin.

Mas'ullar: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.5. Mutaxassisliklar kesimida YaN test savollar (javobsiz) bazasi doimiy yangilanib turishi va ularni tahlili (ekspertizadan) o'tkazilishi ta'minlansin.

Mas'ullar: Test markazi rahbari B.A.Abduraximov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.6. Kafedralar tomonidan talabalarning davomati va o'zlashtirilishi to'g'risidagi ma'lumot kafedra va dekanat kengashlarida muntazam monitoringi olib borilishi hamda dars qoldiradigan talabalar bilan dekanat, tyutorlar bilan birga ishlash tizimiga alohida e'tibor qaratilishi, shuningdek, o'zlashtirishi natijalari bo'yicha kerakli choralar ko'rilishi ta'minlansin.

Mas'ullar: Ofis registrator direktori F.B.Saloxiddinov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.7. Barcha fanlar bo'yicha sillabuslarning sifatiga alohida e'tibor qaratilishi, to'liq holatiga keltirilishi va kafedra mudirlari tomonidan nazoratga olinishi ta'minlansin.

Mas'ullar: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.8. Kafedralarda talabalarga mustaqil ish uchun vazifalarni berilishi va saytlarning manzilini aniq ko'rsatilishi hamda talabalardan dars davomida talabni kuchaytirilishiga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlab o'tilsin.

Mas'ullar: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.9. Professor-o'qituvchilarning kutubxonadan foydalanishlari (tashrifi), shuningdek, kafedra va dekanat tomonidan talabalarni virtual kutubxonalardan foydalanish, ularni jalb etish bo'yicha ishlar jadallashtirilsin.

Mas'ullar: Axborot resurs markazi direktori G.V.Kuzmina, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.10. Kafedralarda ingliz tili guruhlariga ingliz tilida sifatli dars o'tilishi bo'yicha kafedra mudirlari tomonidan nazorati kuchaytirilsin.

Mas'ullar: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani Dj.X.Tursunov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.11. Xorijiy talabalarga ingliz tilida dars beradigan pedagoglarni tayorlash bo'yicha ishlar jadallashtirilsin, shuningdek, yosh pedagoglar tajribali professor-o'qituvchilarga birlashtirilishi hamda doimiy nazoratda bo'lishlari ta'minlansin

Mas'ullar: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Xalqaro fakulteti dekani Dj.X.Tursunov, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo'yicha "Akademiya qabul hay'atining 2024-2025 o'quv yiliga talabalar qabuli natijalari bo'yicha hisoboti" mavzusida bo'yicha Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori, qabul hay'ati mas'ul kotibi Israilov Jaxongirxon Djamshidxonovichning ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.1. Akademiyaga talabalikka qabul qilish bo'yicha mahalliy va xorijiy fuqarolar murojaatlari yuzasidan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda murojaatchilarga Akademiya to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq va to'g'ri yetkazishni tashkil qilish maqsadida Davlat tili va xorijiy tillarda doimiy faoliyat yurituvchi Call-markaz faoliyatini yo'lga qo'yish choralari ko'rilsin.

Mas'ullar: Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.Dj.Israilov, Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.G'aipov.

Muddat: 2025-yil mart.

3. Kun tartibining keyingi masalasi "Professor-o'qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash" bo'yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova 14.00.05-Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga talabgor G.N.Sobirova, dotsent ilmiy unvoniga talabgorlar 14.00.12 – Tibbiy reabilitologiya ixtisosligi bo'yicha G.A.Jumaeva, 14.00.27–Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha I.B.Xayitovlar nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma'lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a'zolarini tanishtirdi. So'ng saylov o'tkazildi (saylov hay'ati a'zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4.Kun tartibining keyingi masalasi "Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash" bo'yicha Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (2- va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar bo'yicha, O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori T.A. Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori F.L.Azizova, magistratura bo'limi boshlig'i A.A.Imamovlar so'zga chiqdilar.

5.1. Barcha magistratura yo'nalishlari bo'yicha 2024/2025 o'quv yilida qabul qilingan magistr-talabalarni magistrlik dissertatsiya mavzulari tasdiqlansin (4-ilovada keltirilgan).

5.2. Neyroxirurgiya kafedrasida 1-kurs magistri Abduganieva Iroda Abdurauf qizi 18-noyabrdan 31-dekabrga qadar Yaponiyaning Saitama shahridagi Saitama Medical Center, Saitama Medical University Department of Neurosurgery bo'limiga stajirovka o'tish uchun tavsiya etilsin.

5.3. Toshkent tibbiyot akademiyasi "Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigienasi" kafedrasida 2-kurs tayanch doktoranti Tulyaganova Dildora Sagdullaevnani "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi"ga nomzodi tavsiya etilsin.

5.4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 13-noyabr 2019-yildagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limida amaliyotni o'tkazish tartibi va tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'quv va o'quv amaliyot bazalari ro'yhatini tasdiqlash to'g'risida"gi 279-sonli buyrug'lari ijrosini ta'minlash hamda talabalarning nazariy o'quv jarayonidan tashqari ishlab chiqarish malaka amaliyotida kasbga oid amaliy bilimlarini, amaliy ko'nikmalari va kompetentsiyalarini mustahkamlash, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish maqsadida malakali professor-o'qituvchilarni

va mutaxassislarni Malakaviy amaliyot jarayonlarini olib borishga jalb etilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish to‘g‘risidagi PQ-60 va PQ-61-sonli qarorlariga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalarining Malakaviy amaliyot jarayonlariga ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay oladigan professor-o‘qituvchi va mutaxassislar mehnatga soatbay haq to‘lash tartibidagi shartnoma asosida jalb etilsin. Bunda, mehnatga soatbay haq to‘lash miqdorlari Toshkent tibbiyot akademiyasining joriy imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilansin.

5.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qaroriga muvofiq talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish vakolati berilgan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Toshkent tibbiyot akademiyasida 2 va undan yuqori kurslarda to‘lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalarning belgilangan to‘lov miqdorining kamida 25 foizini to‘lash muddati 2024-yil 1-dekabrgacha uzaytirilsin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor v.v.b.



Sh.A.Boymuradov